



# Савол берини, Жавоб берамиз

**Savol bering, javob beramiz**

**Dekret ta'tilidan qaytgan o'qituvchilarga faqat ta'tildan avvalgi dars soatlarigina beriladi(mi)?!**

Fuqarodan kelgan murojaat:

Fevraldan ishga qaytmoqchiman. Dekretdan qaytganlar faqatgina ta'tildan avvalgi darsini o'ta oladi halosmi? Masalan, dekret ta'tiliga chiqmasdan avval dars 10 soat edi. Ishga qaytganidan keyin ham shu 10 soatga ishlaymanmi?

Javob:

"Umumta'llim muassasalarida sinflarni komplektlash hamda tarifikatsiya ro'yxatlarini shakllantirish tartibi to'g'risida"gi nizomning 19-bandiga ko'ra, homiladorlik va tug'ish ta'tili hamda bola parvarishidan qaytgan o'qituvchilarga dars soatlari mehnat qonunchiligiga asosan mazkur Nizomning 15-bandida belgilangan ko'rsatkichlar ustuvor ketma-ketligi asosida taqsimlanadi.

Ya'ni, xodim dekret ta'tilidan qaytganda uning darslari qayta taqsimlanadi.

---

Umuman olganda, homiladorlik va tug'ish ta'tili hamda bola parvarishidan qaytgan o'qituvchilarga faqat ta'tildan avvalgi dars soatlariqina beriladi, degan qoida yo'q.

**O'ktamjon Ergashev - So'x tumani adliya bo'limi bosh maslahatchisi**

**Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating**

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2025-01-31 18:16:51